

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**“O‘ZBEKISTON MILLIY**  
**ELEKTR TARMOQLARI”**  
**AKSIYADORLIK JAMIYATI**

100084, Toshkent sh., Yunusobod t., Osiyo k., 42.  
Tel: (998-71) 208-56-01  
e-mail: info@uzbekistonmet.uz  
Veb sahifa: www.uzbekistonmet.uz



**THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**  
**JOIN STOCK COMPANY**  
**“NATIONAL ELECTRIC**  
**GRID OF UZBEKISTAN”**

42, Osiyo str., Yunusobod dist., 100084, Tashkent  
Ph: (998-71) 208-56-01  
e-mail: info@uzbekistonmet.uz  
Web site: www.uzbekistonmet.uz

2026-yil 26-may  
01-05-13/4114-son

**“Navoiy MET” filiali**  
**Xodimlarni tayyorlash va**  
**jamlash guruhi yetakchi**  
**muhandisi**  
**R.B. Toshevaga**

“O‘zbekiston MET” AJ tomonidan, Sizning 2026-yil 15-may kuni Jamiyat boshqaruvi raisining o‘rinbosari F.Qurbonov nomiga yo‘llagan murojaatingiz Jamiyatning Jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlarni qayd qilish kitobida 16-may kuni VS-80 raqami bilan ro‘yxatga olinib, Jamiyatning joriy yil 1-maydagi 113-son buyrug‘iga asosan “Navoiy MET” filialida o‘tkazilayotgan xizmat tekshiruvi materialariga birlashtirilgan holda mazkur tekshiruv doirasida ko‘rib chiqilmoqda.

Shu bilan birga, “O‘zbekiston MET” AJning 2026-yil 15-maydagi 123-son buyrug‘ini bekor qilish masalasida joriy yil 18-may kuni Jamiyat boshqaruvi raisi nomiga yo‘llagan va 7165-kirish raqami bilan ro‘yxatga olingan raddiyangizda ko‘rsatilgan vajlaringiz belgilangan tartibda o‘rganib chiqilib, yuqoridagi buyruqni bekor qilish uchun qonuniy asoslar mavjud emasligi hamda Jamiyatning 25-maydagi 135-son buyrug‘iga asosan xizmat tekshiruvini o‘tkazish muddati qonunchilikda belgilangan tartibda 2026-yil 18-iyunga qadar uzaytirilganligi sababli, Sizni Mehnat kodeksining 309-moddasiga muvofiq ishdan chetlatish muddati ham mutanosib ravishda uzaytirilganligi ma’lum qilinadi.

Hozirda murojaatingizda ko‘rsatilgan holatlar yuzasidan qo‘shimcha o‘rganish va qo‘shimcha materiallar to‘plash zarurati yuzaga kelganligi sababli O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuni 28-moddasiga asosan murojaatni ko‘rib chiqish muddati bir oyga qadar uzaytirildi hamda ko‘rib chiqish natijasi bo‘yicha Sizga belgilangan tartibda qo‘shimcha ravishda xabar qilinadi.

**Boshqaruv raisining**  
**o‘rinbosari**



**A. Yuldashev**

Ijrochi: D.Xolmatov (YB)  
Tel: (71) 208-56-51